

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti talabalarining universitetlar aro bo'lib o'tgan "Ma'rifat maydoni"da ko'rik-tanlovidagi ishtiroki

BAYONNOMASI

2026-yil 12-fevral

Anjumanlar zali

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, talaba-yoshlarni ezgu maqsadlarga ilhomlantirish, adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish, ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish hamda talabalar-yoshlar o'rtasida atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng targ'ib qilish, ularning adabiyotga qiziqishlarini yanada oshirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida 2026-yil 12-fevral kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetining "Yulduzlar" jamoasi "Ma'rifat maydoni" ko'rik-tanlovi 2-bosqichida ishtirok etdi. Tanlov 3 bosqichda bo'lib, birinchi bosqichda ishtirokchilar o'zlarini tanishtiruv sharti orqali taqdimot etib berdilar.



Ikkinchi shart bo'yicha ishtirokchilar berilgan savollarga javob berdilar.









Uchinchi shartda esa ishtirokchilar adiblar hiyobonidagi adiblardan birini tanlagan holda Abdulla Qodiriyga bag'ishlangan "O'tgan kunlar" sahna ko'rinishidan parcha havola etdilar. Ko'rik-tanlov yakuniga ko'ra "Yulduzlar" jamoasi II darajali "DIPLOM" bilan taqdirlandilar. Tadbir ishtirokchilari tomonidan barcha jamoalarga minnatdorlik bildirildi. Ushbu tadbirda 3 nafar tyutor xodimlar va 24 nafar talaba ishtirok etdilar.

TXVU Yoshlar masalalari va
MMIB birinchi prorektori:

N.Kadirov

Universitet katta tyutori

F.Ismagilova